



**LABORATORIYA MASHG'ULOTLARINI O'TISHGA DOIR
AYRIM MULOHAZALAR**

O'rinboyeva Kumushoy Sultonbek qizi

Andijon davlat pedagogika instituti

Informatika va aniq fanlar kafedrasida fizika fani o'qituvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7218503>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 17th October 2022

KEY WORDS

*fizika, laboratoriya mashg'uloti,
texnik vositalar, ko'rgazmali
jihaz, ilmiy bilim, ko'nikma,
tasavvur.*

ABSTRACT

Ushbu maqolada fizika fani laboratoriya mashg'ulotlarini olib borishda yuzaga keladigan muammolar haqida mulohazalar yoritilgan va ushbu muammolarni yechishga doir takliflar keltirilgan.

Mamlakatimizda uzluksiz ta'lim tizimini yanada rivojlantirish, ta'limni barcha bosqichlarini, xususan oiliy ta'limni sifatini yaxshilash va xalqaro miqyosdagi raqobatbardosh mutaxassislar tayorlash ishlariga g'oyat katta e'tibor berilmoqda. Bu borada o'quv jarayonini takomillashtirish muhim hisoblanadi. Shular jumlasidan ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanish bilan bog'liq qiyin va ko'p qirrali masalalarni yechishni talab etadi. Buning uchun muassasadagi tegishli ilmiy-metodik, tashkiliy va pedagogik imkoniyatlarni tizimli yondashuv asosida ishga solish zaruriyati yuzaga keladi. Ularning tahlili orqali aniq bir maqsadga yo'naltirilgan o'quv jarayoni tashkil etishga erishiladi. Fikrimizga ko'ra, ushbu yondashuvning metodologiyasi va algortimi quyidagicha bo'lishi mumkin: Zamonaviy ta'lim mazmuni asosida oliy pedagogik ta'lim muassasasi axborot-ta'lim muhiti maqsadini belgilash, pedagogik faoliyatda ta'lim maqsadi tizimlashtiruvchi vazifani bajaradi. Aynan belgilangan maqsad ta'lim mazmuni, maqsadi va tashkiliy shakllarini tanlash uchun asos bo'lib xizmat qiladi. Zamonaviy ta'limning maqsadi mutaxassis modeli talablariga mos ravishda shakllantiriladigan bilim, ko'nikma va malakalar tizimidan tarkib topib, u tegishli ta'lim standartlarida o'z ifodasiga ega bo'ladi. Bundan tashqari respublikamiz kadrlar tayyorlash milliy modeli talablariga ko'ra o'quvchi shaxsi pedagogik jarayon ob'ektigina bo'lib qolmasdan, uning sub'ektiga ham aylanib boradi

Ta'lim muassasalarining zamonaviy o'quv-laboratoriya jihozlari, ko'rgazmali qurollar va axborot kommunikatsion texnologiyalar bilan jadal sur'atlar bilan taminlanib borishi o'qituvchilar bilim samaradorligini oshirib borishda muhim vosita bo'lib, xizmat qiladi. Ushbu o'quv vositalarni dars jarayoniga unumli qo'llash bugungi kun o'qituvchisidan nafaqat ilmiy bilimlarni balki texnik vositalar bilan mukammal ishlay olish ko'nikmalariga ega bo'lishni ham talab etiladi.



Laboratoriya ishlarini bajarish fizika fanini o'rganishda nixoyat muhimdir. Bizning nazarimizda aksariyat hollarda laboratoriya mashg'ulotlarini o'qitishda o'qituvchi qator qiyinchiliklarga duch keladi. Chunki zamonaviy texnik vositalarni ishga tayyorlash, ularni ishlatish va kutilgan natijalarni olishda ayrim o'qituvchilarning ko'nikmalari yetarli emas. Bu esa o'z navbatida laboratoriya mashg'ulotini yuzaki o'tilishiga olib keladi.

Laboratoriya mashg'ulotlarida texnik vositalardan unumli foydalanish talabning o'zlashtirish samaradorligini keskin oshiradi, uni mustaqil ishlab, o'ziga ishonch hosil qilish to'yg'usini rivojlantiradi[1]. Agar talaba shu fanga nisbatan o'zida ishonch hosil qilsa, u albatta ijobiy natijalarga erishadi. Ko'rgazmali jihozlardan foydalanib o'tilgan mavzuni keyingi darsda so'ralganda talaba javob berishda qiynalmaydi. Chunki texnik vositalar orqali ularning qiziqishini, etiborini qozonish mumkin. Talabada qiziqishni, hohishni uyg'ota olsak, diqqatini torta olsak uning bilim darajasi tobora yuksalib boradi va mustaqil ishlash, o'rganish xisssiyoti shakllanadi.

Talabalarga fizika fanidan laboratoriya mashg'ulotlarini o'rgatishda ularda tasavvurni shakillantirish ham muhim omillardan biridir[2]. Chunki fizik jarayonni tasavvur etmay turib, uni o'rganish, mohiyatini tushunish va tahlil qilish juda qiyin kechadi.

Bugungi kunda fizika laboratoriyalarida ishlayotgan texnik hodimlarining bilim ko'nikmalarini ta'lab darajasida deb bo'lmaydi. Ularning aksariyati laboratoriya jihozlari bilan ishlash borasida yetarli tushunchaga ega emas. Bu ham o'z navbatida fizika fanidan o'tilayotgan laboratoriya mashg'ulotlarini samaradorligini susaytiradi.

Bizning fikrimizcha yuzaga kelgan ushbu muammolarni yechimini topish uchun qator ishlarni amalga oshirish zarur deb hisoblaymiz.

Birinchi navbatda fizika fani o'qituvchilarini o'quv-laboratoriya jihozlari bilan ishlash yuzasidan malaka va ko'nikmalarini muntazam oshirib borish lozim.

Ikkinchidan o'quv-laboratoriyalariga xizmat ko'rsatuvchi texnik xodimlar yuqori malaka va ko'nikmalarga ega bo'lishlari zarur.

Uchinchidan fizika fanidan laboratoriya ishlarini elektron variantlari ishlab chiqish va kompyuter yordamida laboratoriya ishlarini bajarishni yo'lga qo'yish ham muxim omillardan biri hisoblanadi.

Ayrim laboratoriya ishlarini bajarishga tegishli asboblarni qo'lda yasashni talabalarning o'zlariga ham topshirish mumkin. Bu o'z navbatda ularga fizik qonunlar va hodisalarni mohiyatini chuquroq tushunishga yordam qiladi.

References:

- [1]. S.X.Kurbaniyazov, A.A. Ganiyev F.S., Yusupov A.A.,Qurbaniyazov A.S.// Bilim olishning zamonaviy imkoniyatlari haqida.Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi, Samarqand. 2009 y.
- [2]. A.Yusupov, F. Ganiyev, S.X.Kurbaniyazov, I. Jaborov. //Rol sovremennoy fiziki pri izuchenii studentami biologicheskix protsessov. Zamonaviy fizika va astronomiyaning dolzarb muammolari. Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari, Qarshi.